



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR OBRAZINING JAHON
ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI ROLI**

*O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi: **Saidrasulova Lobar***

Akbar qizi

*Ilmiy rahbar: **Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi**, O`zbekiston davlat jahon
tillari universiteti o`qituvchisi*

Annotatsiya: Shoh va shoir Z.M.Bobur jahon tamadduniga hissa qo`shgan ulug` siymolar qatorida turadi. Shu bois bu tarixiy shaxs haqida dunyo miqyosida u yashagan davrdan hozirga qadar qator tarixiy va badiiy asarlar yaratildi va yaratilmoqda. Bu tarixiy va badiiy manbalarda ulug` mutafakkir haqidagi muhim haqiqatlar, uning nihoyatda murakkab, biroq mazmunli hayoti o`z ifodasini topgan. Mazkur manbalarni muqoyasaviy o`rganish bugungi adabiyotshunoslik va tarixshunoslik ilmi oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada avstriyalik yozuvchi Fris Vyurtlening “Andijon shahzodasi” qissasi hamda amerikalik sharqshunos Harold Lambning “Bobur – yo`lbars” biografik romanida yaratilgan Bobur obrazi Z. M. Boburning “Boburnoma” memuar va Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” tarixiy asarlari bilan qiyosan tekshirilgan. Bunda adabiyotshunoslikdagi biografik metod asos qilib olingan.

**Kalit so`zlar:** biografik yondashuv, tarixiy shaxs, tarixiy asar, badiiy asar, obraz, tarixiy haqiqat, badiiy to`qima, “Boburnoma”, “Tarixi Rashidiy”.

O`zbek davlatchiligi tarixi, mumtoz adabiyotimizning bosib o`tgan yo`li, buyuk mutaffakkir-u allomalarimiz qoldirgan bebaho ma`naviy xazina nafaqat mamlakatimiz, qolaversa, dunyoning turli hududlarida tadqiqot olib borayotgan tarixchi, adabiyotshunos olimlarni o`ziga jalb qilib kelmoqda. Xususan, buyuk davlat arbobi, ulkan imperiya va sulola asoschisi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi bo`yicha nafaqat yurtimiz yoki Bobur saltanat tuzgan hududlarda, balki Yevropa va Amerikaning ilmiy-tadqiqot markazlaridan ham



mutaxassislar tomonidan o`rganib kelinmoqda. Shoh va shoir haqida ko`plab tarixiy va badiiy asarlar bitilgan va hozirda ham yaratilyapti. Markaziy Osiyo davlatlari, Eron, Hindiston, Yaponiya, Rossiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa juda ko`p mamlakatlarda “Boburnoma” memuari dunyo tillariga tarjima qilindi, kitobxonlarda buyuk bobokalonimiz she`riyatidan xorijiy tillarda ham tanishish imkoniyati paydo bo`ldi. Zahiriddin Muhammad to`g`risida ma`lumot beruvchi tarixiy manbalar asosida ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etib kelinmoqda. Aslida bunday ilmiy izlanishlar Sharq mamlakatlarida ancha oldin, G`arbda esa o`tgan asrning birinchi yarmida boshlangan edi. Bu tadqiqotchilarning darg`alari – boburshunoslik ilmining nemis tilidagi maktabini boshlab bergan avstriyalik sharqshunos olim va yozuvchi Fris Vyurtle bo`lsa, olis Amerikada bu yo`nalishda ilk ilmiy izlanishlar Harold Lambga tegishlidir.

Fris Vyurtle (Woertle Fric) – Avstriyada yashab, ijod qilgan nemis olimi va yozuvchisi bo`lib, u haqida bizgacha juda kam ma`lumot yetib kelgan. Asosan, XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan ushbu ijodkordan bizgacha nemis tilida “BABUR, DER TIGER” (“Bobur – yo`lbars”) asari yetib kelgan. Ushbu sarguzasht-qissa 1947-yilda Avstriya poytaxti Vena shahrida chop etilgan. Kitob istiqlol yillarida “Bobur” Xalqaro fondining sa`y-harakatlari bilan topilib, nemis tilidan olima va tarjimon Yanglish Egamova tomonidan o`girilgan va o`zbek tiliga “Andijon shahzodasi” nomi bilan (2011) nashr etilgan. Qissani o`qib chiqish jarayonida shunga amin bo`lish mumkinki, muallif o`z asarini boshlashdan oldin Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo`li hamda “Boburnoma” asarini qunt bilan o`rganib chiqqan, u yashagan davr, ijtimoiy-geografik muhit va Movarounnahrning iqtisodiy-siyosiy holati to`g`risida muhim ma`lumotlarga ega bo`lgan. Xususan, muallif qissaning kirish qismida quyidagi ma`lumotlarni keltiradi: “Ushbu asarning qahramoni XVI asrda yashagan va hukmronlik qilgan yosh Zahiriddin Muhammad Boburdir. U 11 yoshida Farg`ona hukmdori bo`ldi. Hindistonda uzoq hukmronlik qilgan sulolaga u asos solgan. Bobur o`z boshidan kechirgan voqea-hodisalar haqida o`z ona tili, turkiy-chig`atoyda bir kitob yozgan. Kitob “Boburnoma” deb ataladi hamda qo`lingizdagi qissa ushbu asar asosida yaratilgan”



Fris Vyurtlening Bobur haqidagi sarguzasht qissasi G`arbda ushbu mavzuda yozilgan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Asar, qissa imkoniyatlaridan kelib chiqib, Boburning butun hayot-ijod yo`lini emas, balki faqat endi taxtga chiqqanidan boshlab, dastlabki hukmronlik (1494– 1496) yillarini qamrab olgan. Qolaversa, kitob barcha yoshdagi kitobxonlar uchun, ayrim tadqiqotchilar ta`kidlaganidek asosan “F.Vyurtle o`z asarini bolalarbop, ya`ni bolalar adabiyotiga xos tarzda yaratgan” [2]. Qissada navqiron yoshdagi Bobur siymosi badiiy gavdalandirilgan. Muallif o`rta asrlar Sharq hukmdoriga biroz Yevropa ritsarlariga xos xarakterini beradi. Jumladan, qissani o`qish jarayonida yosh Bobur o`zidan katta-kichikka, ustozlariga ham “sen” deb murojaat qiladigan, dag`al, qo`pol; nutqida g`arbcha betakalluf so`zlarni tez-tez qo`llovchi qo`rs inson sifatida tavsiflangan. Shu bilan birga yozuvchi yosh Zahiriddinni ilmga qiziqishi past, biroz o`yinqaroq, fors tilini qiynalib o`qiydigan; ustoz Mirzo Ullohnning xipchinlaridan qo`rqqani boisidan majburan ta`lim olayotgan, yoshi ulug` ustoziga “Baqaloq la`l” deb laqab qo`ygan [3, 12] tolib sifatida tasvirlaydi. Albatta, bularning barchasi, F.Vyurtlening nuqtai nazaridir. Buni badiiy to`qima mahsuli deb ham baholash mumkin. Biroq adabiyotshunoslik ilmida badiiy to`qima asosida tarixiy haqiqat yotishi muhim tamoyildir. Yozuvchi “Andijon shahzodasi” qissasida Zahiriddin Muhammad Bobur biografiyasiga oid ma`lumotlarni singdirishga harakat qilgan. Muallif asarning kirish qismida yosh hukmdor taxtga 11 yoshida o`tirganini yozadi. “Boburnoma” muqaddimasida muallifning o`zi “Farg`ona viloyatida o`n ikki yoshda podshoh bo`ldum” [4, 5] deb yozadi. Ushbu jumla shoh va shoir haqida Sharq-u G`arbda barcha davrlarda yozilgan tarixiy va badiiy adabiyotlarning boshlanmasi uchun asos bo`lgan. Ammo “11 yoshda” deb Fris Vyurtle xatoga yo`l qo`ymagan, balki shunchaki Boburning tug`ilgan va taxtga o`tirgan yillarni matematik usulda ayirib (1494-1483=11), shunday xulosaga kelgan. Yana bir o`rinda yosh Bobur taxtga o`tirgan paytda aslida navqiron yoshda bo`lgan Qosimbek asarda yoshi ancha joyga borib qolgan, ko`zlari ojiz bek sifatida tasvirlanadi.

Asardagi alohida diqqatga sazovor yana bir jihat – Boburning otasi Umarshayx Mirzoning o`limidir. Bugungi kun tarixshunosligida, “Boburnoma” va



shu mavzudagi barcha badiiy adabiyotlarda ham bu o'lim tasodifiy, baxtsiz hodisa sifatida talqin qilinadi. Xususan, XVI asr muarrix Mirzo Muhammad Haydar o'zining o'ta qimmatli "Tarixi Rashidiy" asarida bu holatga "Umarshayx Mirzo kabutarxonadin kabutar birla uchub, shunqor bo'ldi" [5, 250] – deb yozadi. Aslida tarixiy haqiqatga aylanib ulgurgan ushbu fakt Fris Vyurtlening qissasida atayin uyushtirilgan qotillik sifatida baho beriladi. Muallif asarning "Oq kabutar" bobida "...bit sotqin iblis podshoni yovuzlarcha o'ldirgan" deb badiiy talqin qiladi. Tarixdan ma'lumki, shoh va shoir tug'ilgandayoq unga shayx Xo'ja Ubaydulloh Ahror tomonidan bobosi Yunusxon ishtirokida "Zahiriddin Muhammad Bobur" ismi berilgan. Bu ma'lumot, XV-XVI asrda Sharqda yaratilgan barcha tarixiy va badiiy kitoblarda, qolaversa, amerikalik sharqshunos va yozuvchi Harold Lambning "Bobur – yo'lbars" asarida ham ta'kidlab o'tilgan.

F. Vyurtlening qissasida tasvirlanishicha, Bobur tug'ilganida unga faqat "Zahiriddin Muhammad" ismi berilgan. 15 yoshdan o'tganda, Axxi qal'asini sotqinlardan qaytarib olganida hukmdorga askarlari tomonidan "Bobur – yo'lbars" ismi berilgan. Bobur Mirzoning hayot yo'li tinimsiz kurashlar, xiyonat, topish va yo'qotishlar bilan o'tgan. 12 yoshidanoq mamlakat boshqaruvi zimmasiga tushgan yosh hukmdorga dastlab qarindoshlari, ishongan beklari pand beradi, keyinchalik 1497-yildan boshlab esa Movarounnahrda hokimiyat uchun Shayboniyxon bilan kurash olib borishga majbur bo'ladi. Ammo "Andijon shahzodasi" asarida Bobur taxtga o'tirgan ilk kunlardan Shoyboniyxondan do'q-po'pisaga to'la maktub olib, Dashti Qipchoqliklarga qarshi kurashga juda erta kirishadi. "Andijon shahzodasi" asarining so'nggi boblarida Bobur o'zining azaliy dushmani Shayboniyxonni urushda yengib, asirga oladi, Bobur uni o'ldirmaydi, balki shart qo'yadi: yo mag'lubiyatni tan olib, unga bo'lgan dushmanlik munosabatidan voz kechadi, yoki jallodning qo'liga tushadi. Shayboniyxon Boburning bunday tanti va saxovatpesha ekanligini ko'rib, unga tan beradi. Gina-qudratlar unutilib, hatto bu ikki sobiq dushman Farg'onada Umarshayx Mirzo uchun qurilayotgan maqbaraning qurilishini boshlab berishadi. "Bobur birinchi toshni, Shayboniyxon ikkinchi toshni olib keldi. Shundan so'ng kishanlardan, bo'shatilgan asir jangchilar tosh tashishga kelishdi" [3, 156]. Tarixiy



haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ushbu xulosadan yozuvchining maqsadi – aslida kitobxonga har qanday vaziyatda ham kechirimli va saxiy bo'lishni, urush muammoning yechimi emasligini uqtirishdir. Umuman olganda, “Andijon shahzodasi” qissasi Sharq tamadduniga katta hissa qo'shgan Boburning dunyo tarixida ham munosib o'rin egallaganligini ko'rsatib turadi. Binobarin, olis Avstriyada yashab ijod qilgan nemis yozuvchisi Fris Vyurtlening mazkur mavzuga qo'l urishini shu jihatdan alohida ta'kidlash mumkin. Adib asarda ayrim tarixiy haqiqatlardan chekingan bo'lsa ham, buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatini ulug'laydi, uning hayot yo'lini g'arblik kitobxonlarga o'rnak qilib ko'rsatadi,

Demak, Yevropa olimlaridan Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga va ijodiga birinchilardan bo'lib murojaat qilgan yozuvchi sifatida avstriyalik Fris Vyurtleni e'tirof etsak, bu ishni Amerikada sharqshunos olim Harold Lamb amalga oshirgan. Har 2 ijodkorning asarlarini qiyosiy o'rganish asosida quyidagi xulosalarni keltirib o'tishimiz mumkin: 1. Fris Vyurtle ham, Harold Lamb ham o'z asarini "Bobur – yo'lbars" deb nomlagan. Demak, bu ikkala muallif Zahiriddin Muhammad Boburni, birinchi navbatda, jasur sarkarda, qo'rqmas jangchi sifatida gavdalantirishni maqsad qilib olishgan. 2. F.Vyurtle o'z qissasini nemis tilida, H.Lamb esa ingliz tilida yozgan. 3. Har ikkala muallif o'z kitoblarining kirish qismida asarlarining yozilishi uchun "Boburnoma" memuari asos qilib olinganini alohida ta'kidlab o'tishgan. 4. V.Fyurtle qissasida Boburning endi taxtga o'tirgan yillarigina aks etgan bo'lsa, H. Lamb asarida esa Zahiriddin Muhammad Boburning dunyoga kelishidan toki vafotiga qadar bo'lgan tarixiy voqealar yoritiladi. "Andijon shahzodasi" qissasida Boburning asosan qo'rqmas sarkarda, kelajakka umid bilan qaraydigan yosh hukmdorlik sifatlari ulug'lanib, shoirlik va ijodkorligiga deyarli urg'u berilmagan bo'lsa, Harold Lambning biografiyasida esa Bobur ham sarkarda, ham hukmdor, ham shoir-u ham yozuvchi sifatida, bir so'z bilan aytganda, Sharqning yetuk va barkamol vakili sifatida tasvirlangan. 7. F.Vyurtle o'z qissasini, asosan, bolalarga moslab yozgan. Ushbu asar Bobur Vatanni, or-nomusni himoya qilishga tayyor turuvchi kuchli shaxs sifatida yosh avlodga o'rnak qilib ko'rsatiladi. Harold Lamb biografiyasi esa yoshi,



qiziqishlaridan qat'i nazar barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan bo'lib, undagi Bobur shaxsiyati har jihatdan: solih va sodiq farzand, munosib turmush o'rtoq, saxovatpesha qarindosh, mehribon ota, g'amxor sarkarda va xalqparvar hukmdor sifatida ham betakrordir. Ko'rinadiki, Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi sifatida biz bu ikki ijodkorga – Yevropada birinchilardan bo'lib Bobur obrazini adabiyotga kirgan avstriyalik yozuvchi Fris Vyurtlega hamda olis Amerika kitobxonlariga shoh va shoirning hayoti, ijodini tanitgan sharqshunos Harold Lambning xotirasiga hurmat ko'rsatib, ularning ijodini yanada chuqurroq o'rganishimiz, shu bilan birga buyuk bobokalonimizning barcha xalqlar uchun o'rnak qilib ko'rsatish mumkin bo'lgan umr yo'lini, eng ezgu insoniy fazilatlar yo'g'rilgan ijodiy asarlarini butun dunyoga tanitishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Woertle F. Babur, der tiger. –Vienna: S. Jsrgl & Co, 1947. –156 b.
2. Tursunov A. “Andijon shahzodasi” qissasida Bobur obrazi poetikasi.
3. Vyurtle F. Andijon shahzodasi. –T.: O'qituvchi, 2012. – 160 b.
4. BOBURNING BUYUK “BOBURNOMA”SI VA LIRIK ASARLARINING O'ZBEK ADABIYOTIDA BADIY TALQINI. (2024). *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 171-173.
5. <https://doi.org/10.69691/6sx71f72>
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=77uQGtEAAAAJ&citation_for_view=77uQGtEAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
7. <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2019/iss1/4>.